

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI

*DTPIning pedagogika fakulteti
Maktabgacha ta'lism yo'nalishi
1-bosqich talabalari*

**Raximboyeva Muazzamxon Ximmat qizi
Bobomurodova Bibirobiya
Jovliyeva Dildora**

Anatatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lism berish, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida tarbiyachining vazifasi va bolalarga ta'lism berishning o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lism, tarbiya, tarbiyachi, ta'lism samaradorligi, bola tarbiyasi, pedagogik mahorat, mashg'ulotlar.*

KIRISH

Bizga ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lism-tarbiya berishdan asosiy maqsad, ularni sog'lom, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limga tayyorlashdan iborat. Ta'lism bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. MTMda bolalarga madaniy-gigiyenik ko'nikmalar, asosiy harakatlar o'rgatiladi, ular madaniy ahloqiy qoidalarini o'zlashtirib oladilar. Ta'lism jarayonida bolalarda o'quv faoliyatları asoslari hosil qilinadi, ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Ta'lismni 2 yo'l bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdır.

Birinchi yo'l bolalarni bilim, malaka, ko'nikmalarni kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi orqali egallab borishidir. Bu muomala mehnat faoliyati va shu kabilar bilan belgilanadi.

Ikkinci yo'l maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan rejali ravishda xabardor bo'lib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lism berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini muhim uyushtirish, ular-ni vaqtidan tog'ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekan-ligini ota-onalar o'z farzandlariga uqtirishlari lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lism-tarbiya berish masalalari Abu Ali ibn Sino merosida yoritilganini ko'rishimiz mumkin. Beruniy ota-onalarning bolalari bilan birga harakat qilishlari, turli o'yinlar

uyushtirishlari, ular bilan o'zaro suhbat o'tkazishlari maqsadga muvo-fiq deb maslahat beradi. Beruniy tarbiyaning maqsadi va vazifalari haqidagi, shaxsning rivojlanish to'g'risidagi fikrlarining zamirida insonparvarlik g'oyasi yotadi. U har bir ota-onan o'z farzandlariga ana shu g'oyani singdirishi zarur degan xulosaga keladi.

Binobarin, ta'lismi va tarbiya, jamiyat talablariga javob beradigan muayyan shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish maqsadida katta avlodning yosh avlodga ongli maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida hal etuvchi muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, ta'lismi bolalarni har tomonlama rivojlantirish-ning eng zaruriy shartlaridandir. Maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida ta'larning frontal(umumiyligi), jamoaviy, va yakka tartibdagi shakllaridan foydalilanadi. Bolalarga ta'lismi berish ishlari ekskursiya, didaktik o'yinlar orqali kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o'yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriladi. Mashg'ulot maktabgacha ta'lismi yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rinni va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Mashg'ulot bolalarni mакtabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mahg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta'lismi berish natijasida bilimga qiziqishlar rivojlnana boradi. Mashg'ulotda ta'lismi berish orqali bolalarda mакtabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to'g'ri sifatlar hosil qilinadi. Mashg'ulot bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tibor-ga olib ma'lum izchillikda olib boriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu davrda bolalarda xarakter hislatlarining namunalari shakllanib axloqiy xarakterning asoslari vujudga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lismi-tarbiya berishning asosiy maqsadi va vazifalari bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va maktabga tayyorlash, kelajakda vatanimiz uchun o'z hissasini qo'shadigan buyuk shaxslar qilib tarbiyalashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lif-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari, T.; 2013y
- 2.H.M.Qayumova „Maktabgacha pedagogika”., „TDPU” nashriyoti, T.: 2013y
- 3.Avliyakulov N.X; Musaeva N.N Pedagogik texnalogiyalar.-T.; „Fan va texnalogiyalar” nashriyoti 2008.-164b
- 4.Lex.uz.